

## OILADA O'ZARO MUNOSABAT

*Datqayeva Feruza<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** oilaning barpo bo'lishi, ota-onaga munosabat, oilada farzandlar o'rni va tarbiyasi, farzandlarga munosabat, er-xotin muomalasi, shaxsiy, axloqiy tushuncha, kelishuvlikdagi o'zaro prinsip.

**Kalit so'zlar :** oila, farzandlar, munosabat, tarbiya, muomala, axloq.

Azaldan ma'lumki insoniyat yaratilgandan boshlab, millati, o'tmishi va urf odatlari, qadriyatlaridan qat'iy nazar juft bolib yashashga moyil. Bu insonlarga bashariyatdan qolgan meros hisoblanadi. Hamonki hayot davom etar ekan bu tangri yaratgan tabiatga xos o'zgarmas qonunlardan biri. Olam buni oziga munosib nom bilan atagan. Albatta, bu oila deyiladi va u har bir xalqda muqaddas hisoblanadi. Oilada qadimiy qadriyatlarimiz, an'analарimiz bilan birga zamonga xos turmush tarzi qoidalari hamda talablari yashash muhiti rivojlanadi. Oilada har-bir kishi mehr, tarbiya va o'zaro rishtalar, oila a'zolariga munosabat, qo'llab quvvatlash kabi tuyg'ular bilan ilk nafas ola boshlagan onlarimizdan boshlab tanishamiz. Ma'naviy va madaniy mezonlar poydevorida oila barpo etiladi. Kichik oilami yoki katta oilami har birini oziga xos, takrorlanmas o'rni mavjud. Jamiyatning yaralishi va sifati unda istiqomat qilayotgan oilalardan iborat. Har kim o'z oilasini yaratish uchun avallam bor o'ziga munosib juft tanlashdan boshlaydi. Totuvlik, tinchlik hamda mehr-oqibat, bir-birlariga muhabbat asosida ilk qadamni boshlab toki o'lim ajratmaguniga qadar o'z yaratgan dunyosida go'zal munosabatlar ila hayot kechirishni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Oilani o'zimiz tuzamiz uni sevmalikni imkoni yok va unda munosabatlardan ko'prik quriladi. Samiymylikning ilk nishonasini o'z jigarlarimizning ko'zlarida ko'ramiz. Ularning bemminat g'amxo'rliklari inson mehrini yanada joshqillantiradi. Oilada to'gri juft tanlash hamda kichik jamiyatni o'z xonadonida barpo etish bu kelajakka muhim qadam qo'yishning muqaddimasidir. Bilamizki insonlarni kelajagi, yutuqlari yoki aksi, shu bilan birgalikda muofaqiyat hattoki ruhiyati, atrofdagilarga munosabati oilaviy muhit bilan o'zaro bog'liqdir. Unda xar -bir oila a'zosining aloxida egallagan o'rni mavjud.

O'zbek oilalarida ota-onaga bo'lgan munosabat aloxida taqsinga loyiq. Ota -onaga munosabat deganda bizning qon-qonimizga singib ketgan milliy qadriyatlarimiz doimiy ustovorligini ko'rsatadi. Ularning oiladagi o'rini muqaddas va ularga bo'lgan munosabat ham takrorlanmas. Ota-onalar farzandlari dunyoga kelishi bilan ularga eng yaxshi hayotni taqdim qilishni xohlashadi. Buning uchun bor imkoniyatlaridan foydalanishadi. Shu bilan birgalikda farzandlarni ota-ona oldidagi muqaddas burchlardan biri ayniqsa bizning xalqimizda ularning roziligini va duolarini olishdir. Ularning farzandlari zimmasiga ortiladigan vazifalaridan biri ularga yaxshilik va mehribonlik qilishdir. Muqaddas va keng qamrovli dinimizda ota-onaga ozor berish og'ir gunohlardan biri xisoblaniladi. Musulmon oilalarida ota-ona doimo dasturxon to'rida o'tiradilar. Ulardan oldin taomga qo'l chozilmaydi. Ularning oldiga tushib yurilmaydi, hurmatsizlik deb bilinadi. Ularning duolarisiz uydан chiqilmaydi. Safarga ketishdan oldin ham ularni ziyorat qilinadi. Bir so'z bilan aytganda bizning an'analарimizda ota-ona so'zi qonundir. Ammo masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Barcha barmoqlar barobar bo'lmagani kabi jamiyatdagi bazi bir onalar yoki otalar o'z jigar bandlariga yetarlicha mehr korsata o'lmaydilar.

<sup>1</sup> 1-kurs magistranti



Farzandlari qiziqishlarini oxirgi o'ringa qo'yadilar. Ular bilan hisoblashmagan holda, ular uchun qaror qabul qiladilar. Tabiyki bu turdagi insonlar qaysidir ma'noda o'z shaxsiy hayotlarida yutuqlarga erishgan, o'z o'rnini topgan imsonlardir, lekin farzand bilan munosabat olib borish saviyasida hatolarga yo'l qo'ymaydi deb bo'lmaydi. Agar farzand va ota-ona o'rtasida do'stona tuyg'ular yaxshi rivojlangan bo'lsa balki ular bir-birlarini fikrlari va istaklarini to'g'ri namoyon eta oladilar. Qiziqishlari bilan hisoblashadilar. Bu hissiyotlar, ya'ni bola albatta ota-onaga ishona olishi mumkunligini go'dakligidan his etmog'i shart. Shundagina jamiyatga o'z fikriga ega kelajak avlod kirib kelishda davom etadi.

Odam alayhissalom va momo Havo yaratilgandan buyon odamzot juft bo'lib istiqomat qiliadi va bu an'ana xozirga qadar davom etib keladi. Insoning ikki xil jinsda yaratilishi dunyoda hayotning xozirga qadar davom etib kelayotganining sababidir. Tabiki shaxs o'z talab, istaklariga munosib juft qidiradi. O'ziga kim va nima kerakligini yaxshi tushungan insongina juft tanlashda o'z dunyo qarashiga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan ko'proq oila qurishda muofaqiyatga erishadilar. Oila qurgan erkak va ayolning ko'p masalalarda yakdilligi bir-birlaridan sokinlik topishiga sabablaridan biridir. Er-xotin munosabati o'zaro ishonch ustiga quriladi, yillar davomida bir-biriga ishonch va suyanch tuyg'ulari o'sib borishi natijasida u yanada go'zallashadi. Er oiladagi o'z vazifalarini, ayol esa o'z o'rnini unutib qo'yganda kelishmovchiliklarga sabab ko'payadi. Oila yuritish madaniyatini yaxshi tushunmaslik yoki ikkala tarafning ham o'z fikriga ega emasligi yani atrofda shaxslarni juftlikarga aqil o'rgatishi va ularni ma'naviy va moddiy ahvolidan to'liq bexabar holda ularni hayotiga aralashishlari bazida tuzatib bo'lmas muammolarning kaliti xisoblanadi. Ayrim oilalarda o'z vazifalarini nimadan iborat ekanligini farzandlariga bolalik davridan tushuncha berib borilmagani hamda bola kelajakdagi oila deb atalmish kichik jamiyatda qanday yo'l tutishi kerak ota-onasiga, juftiga farzandlariga o'rinli munosabat qanday bo'lishini nainki oilasida hatto ta'lim maskanlarida ham yetarlicha o'rganmagani ham sabablardan biri bola oladi. Bu muammolarning ildizini topib o'sha yerdan hal etishni boshlash kelajak avlodni qayerda qanday yuklamalar unga tegishli ekanini singdira olishga poydevor bo'la oladi. Hozirgi kunda biz yashab kelayotgan jamiyatda har tomonlama muammolar va yechimlar hisobga olinib erkaklar va xotin-qizlar imkoniyatlari va huquqlari barobar maqomga ega. Bundan ko'rinib turibdiki jamiyatimiz nafaqat hozir, balki azaldan ayollarimizni qadrlab kelgan. Bunga togri yondashib kelayotgan ota-bobolarimiz va zamondosh erkaklarimiz o'z vazifalarini tog'ri bajarar ekanlar albatta bizning jamiyatimizda oilalarni faovonlik tark etmaydi. O'z o'rnida ayollar va erkaklar bir-birlarini qo'llab quvattlasalar hamjihatlikdagi bahtiyor oilani yaqqol misoli bo'la oladi.

Yurtimizda istiqomat qilayotgan har-bir shaxs o'zi tanlagan e'tiqod va so'z erkinligiga haqli. Davlatimiz belgilab bergan huquqlarimiz shubhasiz faqtagina shaxs manfaatlarini va uning qulayliklari, havfsizligini hisobga olib ishlab chiqilgan. Biz qilgan yaxshi yomon ishlarimizga vijdonan javobgar ekanimizni ham nazardan chetta qoldirmasligimiz kerak. Albatta, bunda odamzotning axloqi va shaxsiy qarashlarini misol qila olamiz. Shaxsiy va ahloqiy tushuncha nimalardan iborat? Shaxsning jamiyatga, o'z oilasiga va o'ziga bo'lagn munosabat hamda qoidalari bularni sirasiga kiruvchi omillardandir. Shaxs yaralgandan boshlab o'z meniga egalik qilib, o'ziga nima yoqadi va nima yoqmaydi, unga qanday muoamala kerak, kimlar uning hayotida bo'lishi kerak, kimlar bolmasligi kerak tanlashga urinadi. Boshqalar bilan munosabat, atrofda shaxslarning xulqi, talablari albatta xar qanday shaxsni ahloqiy tushunchalaridan kelib chib vaziyatga moslashishni hamda munosabatni qanday va qay yo'l bilan davom ettirishni xal qiladi. Shaxsda xudbinlik va va boshqa salbiy hislatlar rivojlangan bo'lsa albatta bunday insonlardan ahloqiy etiketni namunalarini yetarlicha topish qiyin boladi. Chunki sanoqli odamlargina bunday muomaladan qoniqadilar va faqatgina o'zlarigina bunga yo'l qo'yib berganlarida bunday ishlar sodir bo'lishi ehtimoli katta. Agar aqil, farosat keng fikirlash va go'zal ta'lim tarbiya shaxsda ustunlik qilsa bunday inson jamiyatda atrofda gilar bilan yetarlicha til topishib xalqona qilib aytganda sihni ham kabobni kuydurmasadan qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladilar. Qush



uyasida ko'rganini qiladi-o'zbek xalq maqollaridan biri. Endi buni ma'no-mazmuniga diqqatimizni qaratsak shaxsni aslida kim bolib yetishishida hamda axloqiy muomalasida uning unib o'sgan tarbiya topgan oilasining o'rni takrorlanmas bo'ladi. Demak, ahloqli o'z fikriga ega vaziyatni sog'lom tahlil qila oladigan insonlarni yatishtirish uchun biz ilk qadamlarni oiladagi muhitni to'g'rilashdan boshlashimiz kerak ekan.

Oilada kelishuv printsipi,yani oila a'zolzrining bir-biri bilan kelishib yashash tamoyili deya olamiz. So'z yana borib tarbiyaga taqaladi.Kelishuv prinsiplari ko'zguga oxshaydi nimani bersang shuni qaytaradi.Boshqalarga berilgan yordam evaziga kamida minnadorchilik bildirish odat tusiga aylangan. Oilda munosabat oila ulug'larini kichiklar bilan mehr almashish jarayonida rivojlanadi desak adashmaymiz. Shuningdek, salbiy munosabatga nisbatan jarayon ham huddi shunday javob bilan yakun topadi. Hatto ota-onalar ham farzandlariga vaqti kelsa tog'ri munosabatda bo'lolmagani uchun vaqtlar o'tib buning salbiy natijalariga guvoh bo'ladilar. Asl sababi esa kelishuv prinsiplarini to'g'ri rivojlanmagani va kerak holatda amalga oshirilmaganidir. Buni yechimi bormi degan savol o'rta tushadi. Oila yaralganadan boshlab tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun milliy qadriyatlarimizni ham unutmasligimiz kerak. Chunki qadriyatlarimizda kattalarga hurmat kichiklarga izzat aloxida o'rin tutadi va bular o'z o'rnida tog'ri qo'llanilganda natijasi ham go'zal bo'ladi shubhasiz. Umuminsoniy urf-odadlarni rivojlantirish hamda uning o'rnini oilada yuksaltirish kelishuv prinsiplarini chiroyli davom etishiga yana bir asoslardan bo'la oladi. Azaldan bizning milliy oilalarda har bir shaxs fikriga hurmat bildirilgan asosan kattalar muhim rol oynasalarda farzand qiziqishlari ham hisobga olingan. Oila qurishida ham dinimizda ikki yoshning ko'ngil istaklari inobatga olinsin degan jumalalar shunga misoldir. Kelishuv prinsiplariga shu ham asos bo'ladi, albatta.

Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki, oilada o'zaro munosabatlarning ta'siri oiladagi har bir shaxsga nisabatan hurmat bilan munosabatda bo'lish. Uning dunyo qarashi,fikirlashiga alohida yondashib muomala qilish va kerak joyda qo'llab quvatlash aks vaziyatda to'g'ri tushuntirish lozim va oila muqaddas ekanlikini ko'rsatish ola bilishdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. O.HASANBOYEVA VA BOSHQALAR "OILA PEDOGOGIKASI" TOSHKENT 2007 38 bet. 39 bet
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONISTITUSIYASI.33- modda,58-modda
3. Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.
4. SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF."Baxtiyor oila"Toshkent 2013-yil "HILOL-NASHR"nashriyoti.
5. ABDURAUUF FITRAT. OILA YOKI OILA BOSHQARISH TARTIBLARI ikkinchi nashr.TOSHKENT "MA'NAVIYAT"2000 YIL

